



TARJIMADA METONIMIYA HODISASINING NAMOYON BO`LISHI (INGLIZ TILIDAN O`ZBEK TILIGA)

Sharipova Shoxsanam Qodirjon qizi

FDU Lingvistika Ingliz tili magistranti 1 kurs

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida sodir bo`ladigan metonimiya hodisasi muhokama etiladi. Tahlil jarayoni ingliz tilidan o`zbek tiliga amalga oshiriladigan tarjimalar misolida olib boriladi.

Kalit so`zlar: Metonimiya, tarjima, uslub, metafora, til, adabiyot.

KIRISH

Metonimiya tarjimasida doimiy ravishda tadqiq qilishni talab qiluvchi tajimashunoslikda muhim bo`lgan masalalardan biri hisoblanadi. Metonimiyada ikki predmet tashqi ko`rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo`lsa ham, umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari chog`ishtiriladi. Metonimiya ancha murakkab ma`no ko`chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o`ziga jalb etib keladi. Bu ma`no ko`chishga tilshunoslar ko`p ma`noli so`zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko`chma ma`no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshmalar, adabiyotshunoslar esa polisemantikso`zlardagi tasvirning turli vositalar (o`xshatish, sifatlash, majoz istoriya)ni yuzagakeltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo`nalishda ham maqsad bitta, u ham bo`lsa, so`zning ko`p ma`noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o`rganishdir¹.

ADABIYOTLAR SHARHI

¹ Azizov A. "Tilshunoslikka kirish". Toshkent. 2013y.

“Metonimiya” atamasi paydo bo‘lganidan beri o‘tgan yillar davomida metonimiyaga doir ko‘plab tadqiqotlar, izlanishlar amalga oshirildi. Ayniqsa o‘zbek olimlari tomonidan metonimiya sohasida ko‘plab izlanishlar olib borildi. Bunga misol qilib R.Qo‘ng‘irov, S.Karimovlarning ilmiy tadqiqotlarini keltirishimiz mumkin². Metonimiya hodisasi R.Qo‘ng‘irov, S.Karimovning tadqiqotlarida o‘zbek badiiy tili misolida qisman o‘rganilgan bilan ajralib turadi. Agar T.Aliqulov, M.Mirtojiyev tadqiqotlarida nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa, yuqoridagi ikki tadqiqotda esa metonimiya asar tilida yozuvchi uslubni yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida tahlil etilgan. Ikkinchidan bu ikki tadqiqotda metonimiya lingvistik hodisa ekanligiga ham alohida urg‘u berilgan.

Demak, tadqiqotlar orasida metonimiya grammatik hodisa sifatida o‘rganilgan. Metonimiyani tasviriy vositaning shakllari bilan qorishtirish, holatlari uchrab turadi. 60-yillarda T.Aliqulov tadqiqotlarida metonimiya ko‘p ma‘nolik hodisa sifatida qaraldi. 70-yillarga kelib esa M.Mirtojiyev tadqiqotlarida metonimiyaning bunday xususiyati yanada chuqurlashtirib o‘rganildi. Har ikki tadqiqotda ham metonimiya hodisasi nazariy jihatdan asoslanishga harakat qilingan. Metonimiya hodisasi badiiy asarlardan olingan parchalar yoki ma‘lum ijodkor qo‘llangan tasviriy vosita asosida emas, asosan tadqiqotlarning o‘z qarashlaridagi so‘zlarni tahlil etish jarayonida ko‘rsatilgan. M.Mirtojiyev metonimiyani polisemiyaning bir shakli sifatida o‘rganar ekan, unga shunday ta‘rif beradi. “Metonimiya nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi o‘rtasidagi aloqadorlik tufayli ko‘chma ma‘no hosil bo‘lishidir” muallif bu fikrini misollarda asoslashga erishadi³.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Metonimiya – grekcha metonumiya so‘zidan olingan bo‘lib boshqacha nom berish degan ma‘noni bildiradi. Metaforaga o‘xshash tropning asosiy turlaridan biri bo‘lgan metonimiya ham so‘zlarning, ko‘chma ma‘nosiga asoslanadi.

² Mirtojiyev M. “O‘zbek tilida polisimiya”. T: Fan 54-75 betlar. 2018

³ Boboxonova L, “Ingliz tili stilistikasi” Toshkent. 2013.

Metofarada bir-birlariga o'xshash predmet va ularning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinish yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi predmetlar belgilari chog'ishtiriladi. Masalan: Ra'no Anvarga xat yozib yuboradi va gapning qolganini Fuzuliydan o'qirsiz, deydi (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon"). Bunda muallifning nomi uning asari o'rniga ko'chgan uni nomi bilan qo'llanadi.

Ingliz tilida ham metonimiya qanday yo'l bilan ko'chirilyotganiga ko'ra bir qancha bo'limlarga bo'linadi:

1. *Part for the whole* (qism butun) bu turi o'zbek tilida ham mavjud bo'lib, alohida ko'chim hisoblanadi, ba'zi tilshunoslar tomonidan qismanmetonimiyaning bir ko'rinishi deb qaraladi va bu ingliz hamda o'zbek tillarida sinekdoxa deb yuritiladi.

2. *Product for producer* (maxsulot ishlab chiqaruvchi nomi bilan)

3. *Object used for user* (asbob bilan foydalanadigan kishiga, ustaga ishora)

4. *Institution for people responsible* (tashkilotlar shu tashkilot a'zolariga nisbatan)

5. *Place for the institution* (joy tashkilotga nisbatan)

6. *Author for work* (muallifning nomi asarga ko'chishi) Masalan:

"Can I borrow your *Shakespear*?" (Shekisporni olsam maylimi?) misoli o'zbek tilida variantdoshi quyidagicha: "Navoiyni ko'tarib yuribman"

7. *The state for the team* (jamo nomi davlat nomi bilan)

Brazil wins World Cup (Brazilya Jahon kubigini qo'lga kiritdi) = Paxtakoro'z uyida mag'lubiyatga uchradi.

8. *Capital for the government* (poytaxt nomi hukumat o'rnida)

Moscow and Washington will hold talks on this problem (Moskva va Washington bu muammo yuzasidan suhbat uyushtiradi) = Toshkent bugungi o'yinga mezbonlik qilyabdi⁴.

⁴ Gachicheladze G, стр 26-27.

Metonimiyani tarjima qilishdan oldin uning o'z tilida qanday ma'no anglatyotganini to'liq tushunib yetish kerak, masalan, "pen is mightier than the sword" tarjimasi "so'z quroldan kuchli" bu misolda ikkita ma'no bor:

"Pen" (qalam) so'z, adabiyotga ishora qilgan, "Sword" (qilich) so'zi bilan harbiy agressiya nazarda tutilgan.

Ingliz tilida metonimiya yuqorida keltirilgan ko'chirish usullaridan tashqari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1. *spatial* - joyga tegishli metonimiya, masalan, "the ship never sleeps" (kema hech qachon uxlamaydi) kema boshqaruvidagi bort hizmatchilari

2. *temporal* – vaqtga aloqador metonimiya "I was born in years between WorldWar I and II" 1918 va 1941 yillar orasidagi vaqt bilan aloqadorlik

material – gold "pul" ma'nosid Qolgan turlar ushbu kata asosiy turlarning tarmoqlari desa ham bo'ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki ingliz va o'zbek tillaridagi metonimiya, qayta nomlash hodisasi bir biriga juda o'xshash lekin bitta farqli tomoni o'zbek tilida xuddi ingliz tili grammatikasidagidek alohida bo'limlarga bo'lib chiqilmagan lekin ingliz tilidagi ma'lum bir guruhlariga bo'lishning xususiyati unda berilgan misollarga o'zbek tilida deyarli adekvat tarjima topish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizov A. "Tilshunoslikka kirish". Toshkent. 2013 y.
2. Boboxonova L, "Ingliz tili stilistikasi" Toshkent. 2013.
3. Gachicheladze G, Проблемы реалического переводаб автореф докт.дисс. Тбилиси. 2011. стр 26-27.
4. Mirtojiev M. "O'zbek tilida polisimiya". T: Fan 51-75 betlar. 2018
5. Musayev Q. "Tarjima nazariyasi asoslari" Toshkent-2015 14-16-b